



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 16-iyul

333-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam oladigan bolalar qamrovini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 29-maydagi PQ-199-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida” 300-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida.

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam oladigan bolalar qamrovini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 29-maydagi PQ-199-son qarori ijrosi haqida” 300-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam oladigan bolalar qamrovini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 29-maydagi PQ-199-son qarori ijrosi haqida” 278-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-maydagi PQ-199-son qarori bilan:

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining quyidagi takliflari:

a) tadbirkorlik subyektlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarni jalb etgan holda 1-ilovaga muvofiq statsionar bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlari negizida quyidagi mexanizmlar orqali o‘zaro manfaatli hamkorlik loyihalarini amalga oshirish:

oromgohlar hududining bir qismida yangi binolarni qurish yoki mavjud binolarni ta‘mirlash va jihozlash sharti bilan oromgohlar bino-inshootlari va (yoki) yer uchastkalarining bir qismini 15 yilgacha muddatga hamkorlarga ijaraga berish;

oromgohlar hududida yangi binolarni qurish yoki mavjud binolarni ta‘mirlash va jihozlash sharti bilan oromgohlar bino-inshootlari va (yoki) yer uchastkalarini yozgi mavsumdan tashqari paytda foydalanish uchun 10 yilgacha muddatga hamkorlarga ijaraga berish;

oromgohlar hududida yangi binolarni qurish yoki mavjud binolarni ta‘mirlash va jihozlash, shuningdek, yozgi mavsum paytida oromgohlar tashkil etish sharti bilan oromgohlar bino-inshootlari va (yoki) yer uchastkalarini 10 yilgacha muddatga hamkorlarga ijaraga berish;

b) 2-ilovaga muvofiq oromgohlarning bino-inshootlari va (yoki) yer uchastkalarini yozgi mavsumdan tashqari paytda hamkorlarga ijaraga berish orqali ularni o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish ma'qullanganligi;

Quyidagilar:

Federatsiya tomonidan 3-ilovada ko'rsatilgan oromgohlar Bolalarni sog'lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qurilayotganligi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Nukus shahrida joylashgan "Turon" oromgohini rekonstruksiya qilish tashabbusini bildirganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

Federatsiya tomonidan 3-ilovada ko'rsatilgan obyektlarni qurish ularni loyixalashtirish bilan bir paytda amalga oshirilayotgan bo'lsa, qurilish ishlari to'xtatilishi, loyiha-smeta hujjatlari to'liq shakllantirilib, o'rnatilgan tartibda ekspertiza xulosasi olinishi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi 3-ilovada nazarda tutilgan ob'ektlar bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazilishini takshil etishi belgilanganligi;

a) oromgohlarda bino-inshootlarni qurish bo'yicha loyihalar Federatsiya tomonidan ishlab chiqiladigan shartlar asosida tayyorlanishi hamda mazkur loyihalar Federatsiya bilan kelishishi;

b) qarorning 1-bandi "a" kichik bandida nazarda tutilgan hamkorlik loyihalari Federatsiya tomonidan ishlab chiqiladigan shartlar asosida hamkorlarga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali taklif etilishi;

Bunda ijara shartnomasi bo'yicha eng yuqori narx taklif etgan hamkor bilan ijara shartnomasi tuziladi hamda quriladigan barcha bino-inshootlar Federatsiya mulki sifatida rasmiylashtiriladi va belgilangan tartibda hamkor tomonidan foydalanishi;

Hamkorlar ijaraga olingan oromgohning bino-inshootlari, mol-mulki va yer uchastkasiga o'zgartirish kiritmagan va zarar yetkazmagan tarzda qonunchilikda taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkinligi;

v) hamkorlik loyihalarini amalga oshirish uchun "E-auksion" elektron savdo platformasiga joylashtirilgan oromgohlar bo'yicha 3 oy muddatda hamkorlaraniqlanmagan taqdirda, ijara shartlari qayta ko'rib chiqilib, oromgohlar qayta savdoga chiqarilishi hamda yana 3 oy muddatdan so'ng tadbirkorlar tomonidan qiziqish bildirilmagan oromgohlar Bolalarni sog'lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari yoki boshqa manbalar hisobidan bosqichma-bosqich qurilishi va ta'mirlanishi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Federatsiya tizimidagi tegishli oromgohlarni "E-auksion" elektron savdo platformasiga joylashtirish va hamkorlarni aniqlash bo'yicha Federatsiyaga ko'maklashib borishi;

Bolalarni sog'lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko'maklashish jamg'armasiga:

a) 2024-2025-yillarda respublika byudjetidan jami 425 milliard so'm yo'naltirilishi;

Bunda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bir oy muddatda 4-ilovaga muvofiq byudjet xarajatlarini maqbullashtirish hisobiga 175 milliard so‘m hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun xarajatlar hisobidan 50 milliard so‘m, shuningdek, respublika byudjetidan 2025-yilda 200 milliard so‘m ajratilishi;

b) 2024-2025-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari jami 210 milliard so‘m, jumladan, 2024-yil 1-noyabrga qadar 105 milliard so‘m hamda 2025-yil 1-sentyabrga qadar 105 milliard so‘m mablag‘lar 5-ilovaga muvofiq mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilishini ta‘minlanishi belgilanganligi;

Bolalarni sog‘lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko‘maklashish jamg‘armasiga qarorning 5-bandida nazarda tutilgan tartibda ajratilgan mablag‘lar quyidagilar uchun yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilganligi:

qarorning 3-ilovasida ko‘rsatilgan oromgohlarni qurishi;

Federatsiya tizimidagi oromgohlarda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining farzandlari dam olishi va ularni sog‘lomlashtirish xarajatlarining bir qismini qoplash maqsadida har bir yo‘llanma narxining 50 foizidan oshmagan miqdorda oromgohlarga kompensatsiya to‘lashi;

Bolalarni sog‘lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko‘maklashish jamg‘armasi va Bolalarning dam olishini va sog‘lomlashtirilishini tashkil etish departamenti hamda uning hududiy bo‘linmalarining moddiy-texnika bazasini shakllantirish, binolarni saqlash, xodimlariga oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni to‘lashi; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi “Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish ishlarini yanada

takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-427-son qarori 1-bandi “b” kichik bandining to‘rtinchi xatboshisi quyidagi:

“O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi oromgohlarda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining farzandlari dam olishi va ularni sog‘lomlashtirish xarajatlarining bir qismini qoplash maqsadida har bir yo‘llanma narxining 50 foizidan oshmagan miqdorda oromgohlarga kompensatsiya to‘lash” tahririda bayon etilishi belgilangan.

3. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov), O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi viloyat Kengashi (X.Xojiyev) bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam oladigan bolalar qamrovini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 29-maydagi PQ-199-son qarori talablari asosida ish tashkil etishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin..

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev